

QADIMGI TURKIY TILDA VA HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA SON SO'Z TUKUMI

Do'stmurodova Kamola Xudoyberdi qizi

Chirchiq davlat pedagogika universteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Muratova Nafisa Baxtiyorovna**

Annotatsiya: Maqolada qadimgi turkiy til va hozirgi o'zbek adabiy tilida son so'z turkumining farqlari va o'xshashlik tomonlari qisqacha yoritib berilgan. Qadimgi turkiy tilda son so'z turkumi hozirgi o'zbek adabiy tilidek turlari mavjud: sanoq son, tartib son, jamlovchi son, dona son, chama son, taqsim son, kasr son. Shu bilan birga, bu sonlarning ifodalanish usullari va shakllari bo'yicha eski o'zbek tilining o'ziga xos tomonlari ham bor.

Kalit so'zlar: Tuman, noaniq son, tarkibli son, numerativ so'zlar, hisob so'zlar, sodda va murakkab sonlar, bisyor, tartib son affikisi, bir sonining ma'nolari.

Annotation: The article briefly describes the differences and similarities of the number word group in the ancient Turkic language and the modern Uzbek literary language: countable number, ordinal number, single number, chama number, dividing number, fractional number. At the same time, the old Uzbek language has its own aspects in terms of the ways and forms of expression of these numbers.

Key words: Tuman, indefinite number, composite number, numerical words, calculation words, simple and complex numbers, bisyar, ordinal affix, meanings of a number.

Qadimgi turkiy tilda son so'z turkumi hozirgi o'zbek adabiy tiliga yaqin bo'lgani bilan ba'zi tomonlari bilan farq qiladi. Sanoq sonlar eski o'zbek tilida ham tuzilishiga ko'ra sodda va tarkibli sanoq sonlarni tashkil etadi.

Sodda sanoq sonlar birlik, o'nlik yuzlik, minglik shakllarga ega bo'lib, ularning umumiy ko'rinishlari mavjud.

| Birlik | O'nlik | Yuz, ming va b. |
|----------|--------------|---------------------|
| Bir – 1 | On – 10 | Yüz – 100 |
| Ikki – 2 | Yigirmi | Miň – 1000 |
| Yc – 3 | Yigirma – 20 | Tuman – 10000 |
| Tert – 4 | Ottuz – 30 | Lak – 100000 |
| Beş – 5 | Qirq – 40 | Yüz tuman – 1000000 |
| Alti – 6 | Ellik | |
| Yetti – | Elli – 50 | |
| 7 | Altmiş – 60 | |



| | | |
|--------|-------------|--|
| Sekkiz | Yetmiş – 70 | |
| – 8 | Seksan – 80 | |
| Toqquz | Toqsan – 90 | |
| – 9 | | |

2, 7, 8, 9, 30, 50 sonlarni tarkibidagi o'rtada kelgan [k], [t], [q], [l] undosh tovushlar arab yozuvida bir belgi bilan beriladi: iki (2), yeti (7), sekiz (8), toquz (9), otuz (30), elik (50). Bu undoshlarning tashdid orqali yozilishi, ikkilanishi “Tafsir”, “Najhul farodos”, “Guliston bit turkiy” kabi XIII – XIV asrlarga oid ayrim manbalarda uchraydi. 30, 50 sonlari “Devonu lug'atit-turk” da ham tashdid orqali yozilgan.[1;1]

Hozirgi o'zbek tilida predmetning miqdorini, son-sanog'ini ifodalash uchun ko'proq yigirma uchta sondan foydalaniladi. Bulardan to'qqiztasi birlik, sonlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9; to'qqiztasi o'nlik sonlar: 10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90 beshtasi yuzlik, minglik va yuqori sonlarni bildiradi: yuz, ming, million, milliard. Bu sonlarning barchasi miqdorga egalik ma'nosini ifodalovchilar sifatida nolga zidlanadi. Nol soni miqdorga ega emaslikni bildiradi. Qolgan sonlar birlik sonlarning o'nlik songa qo'shiluvidan (o'n bir, yigirma besh, to'qson to'qqiz), shuningdek, yuzlik va o'ndan yuqori son oldidan birlik, o'nlik sonlarning keltirilishidan (bir yuz ellik ming, to'qqiz milliard ikki yuz million, o'n bir ming besh yuz) hosil bo'ladi.[2;1]

Qadimgi turkiy yodgorliklar tilida tarkibli sanoq sonlarning tuzilishi boshqacha tartibda bo'lgan. Masalan, O'rxun-Enasoy yodgorliklarida tarkibli sanoq sonlar quyidagi ikki usul bilan yasaladi:

- a) Kichik sonlar oldin, katta sonlar keyin keladi. Masalan: iki yigirmi – “o'n ikki” (12) ma'nosida, ya'ni “yigirmaga tomon ikki” degan ma'noda.
- b) Katta son oldin, kichik son keyin keladi. Bunda tarkibli sanoq son qismlari III shaxs egalik shaklidagi artuqi (artuq+1) so'zi yordamida bog'lanadi. Masalan, otuz artuqi uch – “o'ttiz uch” (33) ma'nosida, ya'ni “o'ttizdan uch orrtiq, o'ttizga uch qo'shildi” degan ma'noda.[1;2]

Bir so'zi boshqa sonlardan turli ma'nolarga egaligi bilan farq qiladi. Ikki, besh, o'n, sakson kabi sanoq sonlar ot bilan bog'lanib, uning miqdorini aniqlaydi. Bir so'zida esa aniq miqdor bildirish xususiyati ancha kuchsizlashgan, chunki narsaning birligi, tanholigi, yakka ekanligi o'tning birlik shakli orqali ham ifodalanadi. Bola kitobni o'qidi. Bu gapda bir so'zi qatnashmasa ham bola va kitobning bitta ekanligi anglashiladi. Bir so'zida miqdor ma'nosining kuchsizlanishiga uning asosiy ma'nosidan tashqari juda ko'p boshqa ma'nolarni ifodalashida ham ko'rinadi. Bu ma'nolar esa faqat matnda ifodalanadi. Bir so'zi quyidagi ma'nolarni bildiradi:



1. Predmetni aniqlab, uning sonini ko'rsatadi. Bu vaqtda bir so'zi hisob so'zlari bilan ishlatiladi: bir so'm pul, bir gektar maydon.
2. Predmetni aniqlab, “noaniqlik” ma'nosini bildiradi. Xuddi ingliz tilidagi noaniq artikl “a” bajargan vazifani bajaradi: Bir ajib his bor edi manda.
3. Chegaralov ma'nosini bildiradi. Bunda bir so'zi faqat yuklamasiga sinonim bo'ladi: Darsga bir Ahmad kelmadi – Darsga faqat Ahmad kelmadi.
4. Fe'lga bog'lanib, uning ma'nosini kuchaytiradi. Bunda bir so'zi juda so'ziga sinonim bo'ladi: Sizni biram sog'indim – Sizni judayam sog'indim.
5. Takrorlanib, ayiruv bog'lovchisi vazifasini bajaradi, voqea hodisalarning galma – gal ro'y berganini bildiradi: Choy mahali bir kulib, bir yig'lamsiradi.
6. Tenglik ma'nosini bildiradi. Bunda u teng so'ziga sinonim bo'ladi: Qonun oldida hamma bir.[2;2]

Eski o'zbek tilida ham bir soni ko'p ma'noliligi bilan boshqa sanoq sonlardan farqlanadi. Bir soni o'z ma'nosida qo'llanishidan tashqari yana bir qancha vazifalarni ham bajaradi. Bulardan asosiylari quydagilar.

1. Noaniqlik ma'nosini bildiradi: Og'ul bir ün qildi.
2. Ma'noni kuchaytirish, ta'kidlash uchun xizmat qiladi: Bir qiya baqsan zakati husn üçün.
3. Bir so'zi juft so'z shaklida takrorlanibqo'llanganda, ikki tomondan bo'lgan ish-harakatning o'zaro munosabati ko'rsatiladi: Bir-biri birlä xush bolsa erdi.

Bir so'zi sanoq son sifatida qo'llanganda narsa va hodisalarning sanog'ini ko'rsatadi: Bu sozga bir ay kechmishdin soñ.[1;3]

Qadimgi turkiy tilda son so'z turkuminidan foydalanilgan bo'lsa-da, ammo so'zlarning salmog'i hozirgi o'zbek adabiy tiliniki singgari ko'p emas. Bugungu kunda esa olimlarimizning fan ustida olib borgan izlanishlari va o'zbek tilining boyib borishi evaziga boshqa so'zlar va turkumlar qatorida son so'z turkumiga oid so'zlar ham ko'payib bormoqda. Bu esa tilimizga bo'lgan e'tiborning yaxshi ekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

1. “O'zbek tilining tarixiy gramatikasi” G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov (125-bet) [1;1]
2. “O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami” N. Erkaboyeva (274-bet) [2;1]
3. “O'zbek tilining tarixiy gramatikasi” G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov (127-bet) [1;2]
4. “O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami” N. Erkaboyeva (276-bet) [2;2]
5. “O'zbek tilining tarixiy gramatikasi” G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov (127-128-bet) [1;3]

